



D-PRESS SERVICES
nashriyoti

www.d-pressa.com

Respublika konferensiya



Barqaror rivojlanishda ilm-fan va
innovatsion yondashuvlarning roli

2026

A P R E L



Google Scholar

“Barqaror rivojlanishda ilm-fan va innovatsion yondashuvlarning roli” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - J.: “D-PRESS SERVICES nashriyoti”, 2026.

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiya “Barqaror rivojlanishda ilm-fan va innovatsion yondashuvlarning roli” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblangan barqaror rivojlanish konsepsiyasini ta‘minlashda ilm-fan, innovatsiya va ilg‘or texnologiyalarning ahamiyati keng yoritiladi. Konferensiya doirasida iqtisodiyot, ta‘lim, ekologiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy soha va boshqa yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, ilg‘or tajribalar hamda innovatsion yondashuvlar muhokama qilinadi.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislarini to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Tadbirning asosiy maqsadi – ilmiy ishlanmalar va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘rtni ta‘minlash hamda jamiyatning ijtimoiy va ekologik muammolariga samarali yechimlar ishlab chiqishga ko‘maklashishdan iborat. Shuningdek, konferensiya ilmiy hamkorlikni kengaytirish, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Konferensiya natijalari sifatida ilg‘or ilmiy g‘oyalar, taklif va tavsiyalar shakllantiriladi hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi. Mazkur anjuman ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash orqali barqaror rivojlanishning muhim omillarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

DESTRUKTIV SHAXS VA UNING MANIPULYATIV MUNOSABATLARI

Karakulova Umida Abduvakilovna,

O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi
umida260686@gmail.com

Nematova Sabrina Sherzod qizi

O'zMU Jizzax filiali amaliy psixologiya yo'nalishi 5-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada destruktiv shaxs va uning manipulyativ munosabatlari, destruktiv shaxs manipulyativ munosabatlarining muqim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, nizoli o'zbek oilalarida er-xotinlarning manipulyativ munosabatlari darajasi tadqiqoti natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Destruktsiya, destruktiv munosabat, destruktiv shaxs, manipulyatsiya, manipulyativ munosabat.

Abstract: The article describes the destructive personality and its manipulative relationships, the critical aspects of the destructive personality's manipulative relationships. Also, the results of the study of the level of manipulative relations of spouses in conflicting Uzbek families are described.

Key words: Destruction, destructive attitude, destructive personality, manipulation, manipulative attitude.

Аннотация: В статье описаны деструктивная личность и ее манипулятивные отношения, критические аспекты манипулятивных отношений деструктивной личности. Также описаны результаты исследования уровня манипулятивных отношений супругов в конфликтных узбекских семьях.

Ключевые слова: Деструкция, деструктивная установка, деструктивная личность, манипуляция, манипулятивная установка.

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida jamiyatda insonlar hayotida tub burilishlarga sabab bo'layotgan o'zgarishlar, ta'lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklar, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida butun dunyoga keng tarqalayotgan ma'naviy va axloqiy buzuvchilik yoshlarimizning dunyoqarashi va xulq-atvorining shakllanishiga ham jiddiy xavf solmoqda. Yosh avlodni ularning ta'siridan asrash va destruktivlikning oldini olish uchun oilalar bilan ish olib borishda psixoprofilaktik dasturlar ishlab chiqish va amalda qo'llashi kerak. Oilalar bilan turli psixologik tadbirlar tashkil etish lozim. Bunday tadbirlar milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan salbiy munosabatlar, insonlarning xulqida yuzaga kelayotgan o'ziga, oilasiga hamda jamiyatga havf olib keladigan ayanchli oqibatlarining mohiyatini ochib berishi orqali yoshlarimizning qalbida milliy tafakkur va sog'qlom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Oilani asrab avaylash, mustaqkamligi uchun kurashish ruxiy olami mukammal insonlarga xosdir. Zero, har bir inson oila atalmish makonga tug'ilgan ondanoq ruhan bog'lanadi. Nozik tuyg'ular: baxt, quvonch, shodlik, sevinch kabilar eng avvalo oila a'zolarining ishtirokida, bag'rida tuyiladi. Oiladagi iliq psixologik muhit, ahqillik, hamfirklik, bo'lishish kabi oliyjanob munosabatlar boshqa guruqlarda takrorlanmaydi. Ba'zi oilalarda esa aqhillik o'miga o'zaro janjal, samimiyluk o'rniga hasad, ilqlik o'rniga sovuq munosabatlarning hukm surilishi ham sir emas. Oilada o'zaro munosabatlarning yomonlashuviga sabab bo'luvchi omillar ko'p va xilma xil. Bunday vaziyatlarda oilaviy nizolar, ulaming kelib chiqish sabablari, oilada er-xotin, ota-ona va farzand, farzand-farzand munosabatlari bilan bog'liq janjallarga ko'proq urg'u beriladi. Lekin, oilada destruktiv xususiyatli shaxs mavjud bo'lishi, uning o'ziga xosligi, oilada munosabatlarning buzilishiga olib keluvchi jihatlari, u xox ayol, xox erkak, aka yoki uka, opa yoki singil, ota yoki ona, amma yoki xola, toqa yoki amaki va xokazolar bo'lishi mumkinligi ikkinchi darajada qoladi. Psixologik tadqiqotlar esa oilada bitta destruktiv shaxsning borligi ham shu oiladagi munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Kishilar qacda bo'lmasin atrofdagilardan doim salbiy xislatlarni yo'qotib, faqat ijobiy xislatlarni namoyon etishni talab qilishlarini ko'p eshitamiz. Biroq qanday qilib, «eng ijobiy inson»ga aylanish mumkinligi ko'pchilikni o'ylantirib qo'ymoqda. "Ijobiy inson" ga aylanish uchun, avvalo, "salbiy inson" va "ijobiy inson" lar hamda ular o'rtasidagi farqni ajrata olish muhim. Bizning nazarimizda shaxslararo munosabatlarda bu narsa juda muhim. Psixologik nuqtai nazardan yondashilganda,"... aslida "salbiy inson" va "ijobiy inson" mavjud emas. Ijobiy va salbiy xislatlar insonga xos, ammo insonda ular qorishgan xolda bo'ladi. ..." - desak to'qq'riroq bo'ladi. Xo'sh unda ana shu qorishma qanday shakllanadi? Uning mezonlari mavjudmi? - degan savol tug'ilishi tabiiy.

Oilada shaxslararo munosabatlar destruktiviasini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz asosida uning ham irsiy, ham ijtimoiy asoslarga egaligi haqida xulosaga keldik. O'zbeklarda "qazisan qartasan asli naslingga tortasan." kabi maqollar shaxs xarakterining irsiy shartlanganligini anglatga, "Onasini ko'rib qizini ol!" kabi maqollar esa ona tarbiyasining farzand xulqi va xakteri shakllanishiga ijtimoiy ta'sirini ko'rsatadi. Bizning nazarimizda destruktiv munosabatlar destruktiv shaxs tufayli kelib chiqadi. Destruktiv shaxsning shakllanishi esa chuqur ildizga ega bo'ladi. Aniqroq aytganda kishi bir zumda, bir yumalab destruktiv shaxsga aylana olmaydi. Destruktiv shaxs destruktiv individual munosabatlar stili sifatida shakllanadi. Individual munosabatlar stili insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida, ya'ni bolaning tuqilgunigacha va bog'cha yoshidan e'tiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar shakllanib boradi. Insonning temperamenti shaxsning individual munosabatlar stilini tarkib toptiradi.

Shaxsning individual munosabatlar stili deyilganda shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi.

Muhokama va natijalar

Destruktiv shaxs boshqalarning fikrlarini va his -tuyg'ularini bilishiga ishonadi. U boshqalarni diqqat bilan tinglash o'rniga, o'z reaksiyalari asosida xulosa chiqaradi. Ya'ni, destruktiv shaxs - bu vayron qiluvchi, ongsizlikka tayanib harakat qiladigan shaxsdir. Ta'kidlash joizki, destruktiv shaxs faoliyatining turlaridan biri bu o'z-o'ziga buzg'unchi munosabat bo'lib, o'z joniga qasd qilishni ham o'z ichiga oladi. Shaxsning destruktiv o'zgarishi muammosi falsafiy antropologiya, psixologiya va psixiatriyaning eng qiyin muammolaridan biri xisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, shaxs - bu o'ziga xos, takrorlanmas individual shakllanuvchi ya'ni o'ziga xos voqeylik bo'lib uni to'liq tadqiq etish imkoniyati cheklangandir.

Destruktiv xulq-atvor psixologiyada etarli darajada tadqiq etilmagan, «destruktsiya», «destruktiv munosabat», «destruktiv xulq» tushunchalarining mazmuni, sabablari chuqur o'rganilmagan. Ko'pchilik tadqiqotchilar destruktsiyaning xususan, o'smirlik davrida kuzatiladigan xulq oqishi, ayol va erkaklardagi agressivlik, qotillik, suitsid, terrorchilik faoliyati singari turli ko'rinishlariga e'tibor qaratganlar. Kuzatishlarga ko'ra destruktivlikning ayrim ko'rinishlari biolog, genetik, psixolog, seksopatolog, tarixchi, xuquqshunoslar tomonidan o'rganilgan. Muammoni yaxlit holda tadqiq etish uning mohiyatini anglashga yordam berishi mumkinligini xisobga olganda destruktsiya muammosi, destruktiv xulq, uning sabablari va oqibatlarining etarli darajada o'rganilmaganligi muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish, destruktiv xulq-atvor asosini va uning har xil ko'rinishlari namoyon bo'lishini tahlil qilish, destruktivlik muammosini hal etishning jahon tajribasini umumlashtirish insonning vayronkor tabiatini jilovlab turishga va destruktiv mayllarni boshqa faoliyat sohalariga yo'naltirishga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni yaratish imkonini berishi mumkin. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda inson destruktiv faoliyatiga ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida baho berishga harakat qilingan. Xususan, uning biologik, neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy asoslarini tahlil qilish, insonning tabiatidan kelib chiqib, destruktiv xulq mohiyatini tushuntirib berish mumkinligi ta'kidlanadi.

Tadqiqotchi Yu.A.Kleyberg o'zining destruktiv xulq-atvor tipologiyasini ishlab chiqishda "Shaxsning destruktivligi va uning buzg'unchi xatti-harakatlarga moyilligi, asosan, uning individual eksperimental rivojlanish xususiyatlari va bevosita ijtimoiy muhiti bilan belgilanadi. Garchi u ko'pincha vayronkorlik sifatida qabul qilinsada, hozirda mavjudlik uchun keskin kurash sharoitida millionlab yillar evolyutsiyasi bilan shakllangan har bir insonning tug'ma mulki sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, XIX-XX asrlarda falsafa, sotsiologiya, biologiya, psixologiya, neyropsixologiya va psixofiziologiyaning rivojlanish tajribasi bu tuqma emas, balki ijtimoiy-tarixiy masalada baqslashishga imkon beradigan faktlarning to'planishiga olib keldi, tarixiy qarama-qarshi bo'lgan jamiyat sharoitida shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllangan inson xatti-harakatlarining buzg'unchilik tabiatidir." -degan printsipga asoslanadi. Insonlarning destruktiv xulq-atvorining mohiyatini tushunishga ushbu

yondashuvning asosini, albatta, L.S.Vigotskiyning madaniy va tarixiy kontseptsiyasi tashkil etadi. U har bir shaxsni bir-biridan biologik etukligi va madaniy rivojlanishini aniq ajratib turadi. Birinchisi, shaxsiyatni shakllantirish uchun tug'ma asos bo'lib, uni albatta e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ikkinchisi, ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan va rivojlangan shaxsiy rivojlanish mazmuni, bu har bir insonni o'rab turgan jamiyatdagi real munosabatlar interiorizatsiyasining samarasidir.

O'zbekistonlik psixolog U.D.Qodirovning "Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari" nomli kitobida "Inson destruktiv faoliyatini tahlil qilish jarayonida asosiy e'tiborni ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo'ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratgani ma'qul. Destruktsiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan omil deyishdan ko'ra, biologik jihatdan ahamiyatli degan fikr haqiqatga yaqindir. Yuqoridagi mulohazalarda destruktiv faoliyatning biologik va neyrofiziologik asoslari bayon qilingan bo'lib, uning psixik negizlarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir." -deb ta'kidlagan

Oilada destruktiv xulqli shaxs u yoki bu jihatlari bilan oilaning boshqa a'zolariga ta'sir ko'rsatib, ularning ruxiy olamiga putur etkazishi mumkin. Jumladan, psixologik manipulyatsiyadan foydalanib, manipulyativ hatti harakat va munosabatlar orqali o'z qurboniga ruhiy ta'sir ko'rsatishga ham qodir bo'ladilar. Jamiyatda shaxs o'zini yaxshi anglagan, hissiy-emotsional holatini nazorat qila oladigan, maqsadlarini to'g'ri qo'ygan va unga etishish uchun astoydil harakatda bo'lsa, unda hech qachon salbiy psixologik holat yuzaga kelmaydi. Har qanday sharoitda ham irodali, shijoatli kishilar oldinga qarab intiladilar. Salbiy kayfiyatidagi kishilarni kuzatsak, ular har qanday kichik muammoni ham kattalashtirib yuborishadi, behudaga asabiylashishadi. Chunki, bu toifadagi shaxslar o'ziga berilgan hayot imkoniyatidan to'g'ri foydalana olmaydilar.

Xulosa

Psixologlarning e'tirof etishlaricha, inson o'zini yangitdan shakllantirish to'qrisida ham bosh qotirishi kerak. Psixologlar mijoz bilan ishlayotganda ularga «O'zingizga savol bering. Men kimman? Nima uchun yashayapman? Qanday zaif tomonlarim bor? Nima qilsam hayotim yaxshilanadi? Atrofimdagi insonlar uchun qanday yordam bera olishim mumkin? O'zimdagi qaysi nuqsonlarni o'zgartirishim kerak? O'zimdagi nima istayapman? Boshqalardan nima istayapman?» kabi savollar bilan murojaat qilib, shaxsni o'zini anglashga yo'naltiradilar. Inson ana shu kabi savollarni o'ziga berishi bilan hayotga shunchaki kelmaganini, oldida ulkan vazifalar turganini angelaydi. Mana shu anglash uni fikrlashga undaydi, fikrlash esa oldida turgan vazifalarning echimiga olib boradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rejepbayeva, A. (2024). FOROBIY ASARLARIDA SHAXS MUAMMOSI VA UNING PSIXIK DUNYOSI. *Наука и инновация*, 2(21), 54-57.
2. Каракулова, У., & Режепбаева, А. (2024). Muloqot jarayonida tinglash va eshitish. *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации*, 1(1), 372-374.

3. Karakulova, U. (2024). INFANTIL XULQ-ATVORNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA BELGILARI. *International Journal of scientific and Applied Research*, 1(3), 260-263.
4. Abduvakilovna, K. U. (2024). IJTIMOIIY NORMALAR VA MULOQOT FAOLIYATINING O 'ZARO ALOQADORLIGI. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
5. Karakulova, U., & Malikova, S. (2023). STRESS UNI YENGISH USULLARI. *Молодые ученые*, 1(20), 129-131.
6. Каракулова, У., Бердиерова, С., & Реджепбаева, А. (2023). Bolalar muloqotning psixologik-pedagogik xususiyatlari. *Информатика и инженерные технологии*, 1(2), 457-461.
7. Каракулова, У., Хайдаркулов, Х., & Хайдарова, Б. (2023). Bolaning tengdoshlari bilan muloqotining o 'ziga xosligi. *Информатика и инженерные технологии*, 1(2), 453-457.
8. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Xaydarqulov, H. (2023). O'QITUVCHI VA TALABALAR O'RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
9. Umida, K., & Mushtariy, R. (2023). Influence of family conflict on the development of deviant behavior in adolescent age. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(06), 52-57.
10. Umida, K., & Qizi, R. A. Z. (2023). TALABA-YOSHLARNI IJTIMOIIY OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.